

## O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING IJTIMOY MUHOFAZASI: TARIXIY BOSQICHLAR, DAVLAT SIYOSATI VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR

**Jaloldinov Sardorbek Maxamatibroximovich**  
**Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20823390>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining 1991-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan shakllanishi va rivojlanishi tarixiy-huquqiy hamda institutsional jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy tizim evolyutsiyasi besh bosqichga ajratildi: dastlabki huquqiy asoslarning yaratilishi; ijtimoiy xizmatlar va reabilitatsiya mexanizmlarining kengayishi; huquqqa asoslangan yondashuvga o'tish; xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi; ijtimoiy himoyani yagona institutsional boshqaruv asosida tashkil etish bosqichi. Nogironlikka tibbiy-xayriya modeli asosida yondashishdan ijtimoiy va inson huquqlariga asoslangan modelga o'tish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Milliy ijtimoiy himoya agentligi va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatining tarixiy ahamiyati baholandi. Tahlil natijasida qonunchilikdagi ilg'or normalarga qaramay, infratuzilmaning moslashtirilmaganligi, nogironlikni belgilashda tibbiy mezonlarning uzoq vaqt ustun bo'lib kelgani, bandlikning pastligi, ma'lumotlar tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlarining qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki cheklanganligi aniqlandi. Maqolada tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy muhofaza, davlat siyosati, inson huquqlari, inklyuziya, ijtimoiy xizmat, reabilitatsiya, "Inson" markazlari, Milliy ijtimoiy himoya agentligi, institutsional islohot, funksional baholash.

## СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ, ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ

**Джалолдинов Сардорбек Махаматиброхимович**

**Независимый соискатель Андижанского государственного университета**

**Аннотация:** В статье с историко-правовой и институциональной точек зрения анализируются становление и развитие системы социальной защиты лиц с инвалидностью в Узбекистане с 1991 года по настоящее время. Эволюция национальной системы разделена на пять этапов: формирование первоначальной правовой основы; расширение механизмов реабилитации и социальных услуг; переход к правозащитному подходу; имплементация международных стандартов; создание интегрированной системы управления социальной защитой. Раскрываются особенности перехода от медицинской и благотворительной модели инвалидности к социальной и правозащитной модели. Оценивается историческое значение Закона «О правах лиц с инвалидностью», ратификации Конвенции ООН о правах инвалидов, создания Национального агентства социальной защиты и центров социальных услуг «Инсон». Выявлены сохраняющиеся проблемы, связанные с доступностью инфраструктуры, занятостью, качеством статистических данных, функциональной оценкой

инвалидности и участием организаций лиц с инвалидностью в принятии решений. Предложены практические меры по дальнейшему совершенствованию системы.

**Ключевые слова:** лица с инвалидностью, социальная защита, государственная политика, права человека, инклюзия, социальные услуги, реабилитация, институциональная реформа, функциональная оценка.

## **SOCIAL PROTECTION OF PERSONS WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN: HISTORICAL STAGES, STATE POLICY AND INSTITUTIONAL REFORMS**

Jaloldinov Sardorbek Makhamatibrokhimovich

**Independent Researcher of Andizhan State University**

**Abstract:** This article provides a historical, legal and institutional analysis of the formation and development of the social protection system for persons with disabilities in Uzbekistan from 1991 to the present. The evolution of the national system is divided into five stages: establishment of the initial legal framework; expansion of rehabilitation and social service mechanisms; transition towards a rights-based approach; implementation of international standards; and development of an integrated institutional governance system. Particular attention is paid to the gradual transition from the medical and charity models of disability towards social and human rights-based models. The historical significance of the Law on the Rights of Persons with Disabilities, ratification of the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, and establishment of the National Agency for Social Protection and “Inson” social service centres is assessed. The study identifies continuing challenges related to accessibility, employment, disability assessment, statistical data, community-based services and the participation of organisations of persons with disabilities in decision-making. The article offers recommendations for strengthening legal guarantees, institutional coordination, functional assessment, inclusive employment and community-level social services.

**Keywords:** persons with disabilities, social protection, state policy, human rights, inclusion, social services, rehabilitation, institutional reform, functional assessment.

### **Kirish.**

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va ijtimoiy muhofazasini ta'minlash zamonaviy ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala faqat pensiya, nafaqa yoki tibbiy yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi. U insonning ta'lim olish, mehnat qilish, mustaqil hayot kechirish, axborotdan foydalanish, jamoat va siyosiy hayotda ishtirok etish, odil sudlov hamda qulay jismoniy muhitdan foydalanish huquqlarini ham qamrab oladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrdan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yaratishga kirishdi. Biroq milliy tizimning rivojlanishi bir xil sur'atda kechmadi. Dastlabki bosqichda nogironlik, asosan, sog'liqning buzilishi, mehnat qobiliyatining yo'qotilishi va davlat tomonidan moddiy ta'minotga ehtiyoj nuqtayi nazaridan talqin qilindi. Keyingi davrlarda esa nogironlik shaxsning individual holatidan tashqari, jamiyatdagi jismoniy, axborot, institutsional va ijtimoiy to'siqlar bilan bog'liq hodisa sifatida baholana boshlandi.

2019-yilgi xalqaro vaziyat tahlilida 1991-yilda qabul qilingan qonun O'zbekistondagi nogironlik sohasini tartibga soluvchi asosiy huquqiy vosita bo'lgani, ammo uning konseptual asosida kasallikning oldini olish va tibbiy xizmatlarga yo'naltirilgan yondashuv ustunligi qayd

etilgan. Hujjatda fuqarolik va siyosiy huquqlar yetarlicha ifodalanmagani ham ko'rsatilgan [1; B. 66–67].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar masalaning mazmunini tubdan o'zgartirdi. Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat ko'magiga muhtoj passiv yordam oluvchilar sifatida emas, balki teng huquqli fuqarolar, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchilari sifatida e'tirof etila boshlandi. Mazkur o'zgarish davlat siyosatining huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

### **Adabiyotlar tahlili.**

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy muhofazasiga bag'ishlangan tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga milliy qonunchilik va davlat siyosatini tahlil qiluvchi huquqiy manbalar kiradi. Ushbu hujjatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligi, kamsitilmasligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, mustaqil qaror qabul qilish, qulay muhitdan foydalanish va jamiyat hayotida ishtirok etish prinsiplari belgilangan. 2020-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunda inson qadr-qimmatini hurmat qilish, shaxsiy mustaqillik, tanlash erkinligi, kamsitilmaslik, imkoniyatlar tengligi va qulaylik prinsiplari mustahkamlandi [3; B. 1–3].

Ikkinchi guruhni BMT tuzilmalari, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan tayyorlangan vaziyat tahlillari tashkil etadi. Mazkur hisobotlarda qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan birga huquqlarni amalda ta'minlash, infratuzilma, bandlik, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar, statistik ma'lumotlar va davlat boshqaruvi bilan bog'liq muammolar o'rganilgan.

2021-yilgi vaziyat tahlilida 2020-yilgi qonun va 2021-yilda BMT konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi muhim huquqiy yutuqlar sifatida baholangan. Shu bilan birga, xayriya va tibbiy model elementlari ijtimoiy munosabatlar hamda ayrim boshqaruv amaliyotlarida saqlanib qolayotgani ta'kidlangan [2; B. 4–7].

Uchinchi guruhga ijtimoiy himoya tizimini boshqarish, xizmatlarni integratsiyalash, individual holatni boshqarish va funksional baholash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar kiradi. Xalqaro mehnat tashkiloti, UNICEF va Jahon bankining qo'shma diagnostik tadqiqotida ijtimoiy himoya funksiyalari ko'plab vazirlik va idoralar o'rtasida taqsimlanganligi, yagona muvofiqlashtiruvchi institutning mavjud emasligi tizim samaradorligini cheklab kelgani ko'rsatilgan [5; B. 14–16]

Mavjud adabiyotlarda sohaning alohida huquqiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, 1991–2026-yillardagi o'zgarishlarni yaxlit tarixiy davrlashtirish, qonunchilik evolyutsiyasi bilan institutsional boshqaruv o'zgarishlari o'rtasidagi aloqani ochib berish yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga amal qilindi. Tarixiy-genetik metod nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishini izchil o'rganishga imkon berdi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida mustaqillikning dastlabki davridagi tibbiy-ijtimoiy yondashuv bilan zamonaviy huquqqa asoslangan model taqqoslandi.

Institutsional tahlil davlat organlari vakolatlarining o'zgarishi, muvofiqlashtiruvchi institutlarning tashkil etilishi va mahalla darajasidagi xizmat ko'rsatish mexanizmlarini

baholashda qo'llanildi. Kontent-tahlil asosida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, tavsiyalar va statistik ma'lumotlarning mazmuni o'rganildi.

### **Natija va muhokama.**

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish milliy tizimining huquqiy poydevori 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan yaratildi. Mazkur qonun mustaqillikning ilk davrida pensiya ta'minoti, tibbiy yordam, reabilitatsiya, mehnatga joylashtirish va ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soldi.

Qonunning tarixiy ahamiyati shundaki, u nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash masalasini alohida davlat siyosati yo'nalishi sifatida belgiladi. Shunga qaramay, uning konseptual asosida nogironlikni, avvalo, organizm funksiyalarining buzilishi va mehnat qobiliyatining cheklanishi sifatida talqin qiluvchi tibbiy model ustun edi. Ijtimoiy himoya ko'proq kompensatsion xarakterga ega bo'lib, shaxsga nafaqa, imtiyoz, davolash va maxsus muassasa xizmatlarini taqdim etishga qaratildi.

2019-yilgi vaziyat tahlilida ushbu qonun teng imkoniyatlarni ta'minlashni maqsad qilgan bo'lsa-da, uning normalarida kasallik, davolash va profilaktika bilan bog'liq yondashuv markaziy o'rin egallagani qayd etilgan. Fuqarolik, siyosiy ishtirok, mustaqil hayot va huquqiy layoqat bilan bog'liq kafolatlarning yetarli emasligi ham ko'rsatilgan [1; B. 66–68].

Mazkur davrning asosiy institutsional xususiyati vazifalarning sog'liqni saqlash, mehnat, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida bo'linganligi edi. Nogironlikni belgilash tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshirildi. Natijada ijtimoiy xizmat olish imkoniyati ko'pincha rasmiy tibbiy maqomga bog'lanib qoldi.

2008-yilda sohaga oid qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi milliy tizimni takomillashtirish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ldi. Unda reabilitatsiya, ta'lim, kasbga tayyorlash, ishga joylashtirish, transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan foydalanish masalalari batafsilroq tartibga solindi.

Mazkur davrda protez-ortopediya vositalari, sanatoriy-kurort davolanishi, uyda xizmat ko'rsatish, "Muruvvat" va "Saxovat" internat muassasalari hamda tibbiy-ijtimoiy ekspertiza faoliyati kengaydi. Biroq xizmatlarning katta qismi muassasaviy parvarish shaklida tashkil etilib, mahallada mustaqil yashashni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar yetarli darajada rivojlanmadi.

Xalqaro tadqiqot natijalari uy sharoitidagi yordam xizmatlari faqat cheklangan guruhlariga taqdim etilgani va shaxsiy yordamga ehtiyoji bo'lganlarning juda oz qismi davlat xizmatidan foydalanganini ko'rsatadi. So'rov ishtirokchilarining 48,2 foizi shaxsiy yordamga ehtiyoj bildirgan bo'lsa, davlat tomonidan uyda shaxsiy yordam olganlar ulushi 1,2 foizni tashkil etgan [13; B. 29–30].

2016-yilda "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ijtimoiy xizmat tushunchasini kengaytirdi. Unda xizmatlarni aniqlash, baholash va ko'rsatishning huquqiy asoslari belgilandi. Biroq xizmatlarni boshqarish bir nechta idora vakolatida qolganligi sababli ularni bir-biri bilan bog'lash va shaxsning ehtiyojlariga mos individual reja asosida taqdim etish mexanizmi to'liq shakllanmadi.

CODI metodologiyasi asosida o'tkazilgan tahlil ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta, mehnat bozori dasturlari va ijtimoiy xizmatlar turli institutlar tomonidan alohida boshqarilgani, ma'lumot almashish hamda natijalarni baholash tizimi zaif bo'lganini ko'rsatgan [5; B. 91–99].

Ikkinchi bosqichning asosiy natijasi ijtimoiy muhofazaning xizmatlar va reabilitatsiya komponentlari kengayganida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, tizim hanuz idoraviy, muassasaviy va tibbiy yondashuvga tayangan edi.

2017-yildan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash siyosatida yangi tarixiy bosqich boshlandi. 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmon bilan davlat ko'magini tubdan takomillashtirish, yangi qonun loyihasini ishlab chiqish, infratuzilmani moslashtirish, ta'lim va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilandi. Xalqaro tahlilda mazkur farmon kompleks huquqiy islohot va BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlikni boshlab bergan siyosiy hujjat sifatida baholangan [1; B. 67–68].

Ushbu davrda davlat siyosatidagi eng muhim konseptual o'zgarish "ijtimoiy himoya obyekti" tushunchasidan "huquqlar egasi" tushunchasiga o'tishda namoyon bo'ldi. Natijada davlatning vazifasi nafaqat moddiy yordam ko'rsatish, balki kamsitishni bartaraf etish, teng imkoniyat yaratish, oqilona moslashtirish va qulay muhitni shakllantirishdan iborat ekani e'tirof etildi.

2020-yil 15-oktabrda O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunda nogironlik belgisiga ko'ra kamsitishga yo'l qo'ymaslik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, mustaqillik, tanlash erkinligi, imkoniyatlar tengligi, jamiyat va davlat hayotiga jalb etish hamda obyekt va xizmatlardan foydalanish imkoniyati asosiy prinsiplar sifatida belgilandi [3; B. 1–4].

Qonun davlat organlariga nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bilan maslahatlashish, huquq va manfaatlarga daxldor qarorlarni ishlab chiqishda ularning ishtirokini ta'minlash majburiyatini yukladi. Shuningdek, axborotni imo-ishora tili, Brayl yozuvi, subtitrlar, qulay elektron formatlar va boshqa muqobil shakllarda taqdim etish talablari mustahkamlandi [3; B. 5–8].

Mazkur huquqiy yangilanishlarga qaramay, amaliyotdagi jismoniy to'siqlar saqlanib qoldi. Jahon banki tahliliga ko'ra, bino va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining katta qismi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilmagan, mavjud qurilish va qulaylik talablarini nazorat qilish hamda ijro ettirish mexanizmlari yetarli samaraga ega bo'lmagan [4; B. 5–6].

2021-yilda O'zbekiston tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilinishi milliy tizim tarixidagi muhim burilish bo'ldi. Konvensiya nogironlikni faqat sog'liq holatining buzilishi sifatida emas, balki shaxsdagi uzoq muddatli xususiyatlar bilan atrof-muhit va munosabatlardagi to'siqlarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qiladi.

Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi davlat zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yukladi:

- nogironlik asosidagi kamsitishni taqiqlash;
- qonun oldida tenglik va huquqiy layoqatni ta'minlash;
- mustaqil hayot va mahallada yashash imkoniyatini yaratish;
- inklyuziv ta'limni rivojlantirish;
- ochiq mehnat bozorida teng bandlik imkoniyatlarini ta'minlash;

- davlat siyosatini shakllantirishda nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlarining ishtirokini kafolatlash;

- konvensiyaning ijrosi yuzasidan monitoring va hisobot tizimini shakllantirish.

2021-yilgi vaziyat tahlilida yangi qonun va Konvensiya ratifikatsiyasi sezilarli huquqiy taraqqiyot sifatida baholangan. Ayni paytda, qonun normalarini Konvensiya bilan to'liq uyg'unlashtirish, mustaqil monitoring mexanizmini yaratish va huquqlarning barcha guruhlarini aniq kafolatlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan [2; B. 19–22].

Mazkur bosqichda ijtimoiy himoya boshqaruvini isloh qilishga qaratilgan strategik tayyorgarlik kuchaydi. 2020–2022-yillarda amalga oshirilgan BMT qo'shma dasturi ijtimoiy himoya tizimiga rahbarlik qiluvchi maxsus institut konsepsiyasini ishlab chiqish, 2030-yilgacha mo'ljallangan xarajatlari hisoblangan milliy strategiyani tayyorlash, Yagona reyestrni kengaytirish va funktsionallikning xalqaro tasnifi asosida nogironlikni baholash modelini sinovdan o'tkazishga ko'maklashdi [7; B. 19–22].

BMT qo'shma dasturining baholash hisobotida 2022-yil boshida ijtimoiy himoya vakolatlari Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda boshqa tuzilmalar o'rtasida bo'lingani qayd etilgan. Yagona rahbar institutning yo'qligi takrorlanuvchi vazifalar, muvofiqlashtirishdagi uzilishlar va resurslar samaradorligining pasayishiga olib kelgan [7; B. 13, 32–33].

2022-yilda Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasining tasdiqlanishi ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam, xizmatlar va bandlik dasturlarini o'zaro bog'lash uchun dasturiy asos yaratdi. UNDP tadqiqotida mazkur strategiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida xizmatlarni raqamlashtirish, mahalla darajasida taqdim etish, nogironlikni baholashda ijtimoiy modelga o'tish va idoralararo ma'lumot almashishni rivojlantirish qayd etilgan [10; B. 12–14].

2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu qaror ilgari turli vazirlik va idoralarga tarqoq holda birlashtirilgan ijtimoiy himoya vakolatlari yagona strategik boshqaruv markazi doirasida muvofiqlashtirish imkonini yaratdi.

Agentlik zimmasiga ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ijtimoiy xizmatlar standartlarini belgilash, davlat va nodavlat xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ehtiyojmand shaxslarni aniqlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini nazorat qilish va axborot tizimlarini integratsiyalash vazifalari yuklandi [8; B. 1–4].

Tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi ijtimoiy muhofazani fuqaroga yaqinlashtirishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm bo'ldi. Mazkur markazlar orqali shaxsning individual ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy holatini baholash, xizmat rejasini tuzish, tegishli tashkilotlarga yo'naltirish va xizmatlarning natijasini kuzatish ko'zda tutildi.

PF-82-son Farmonda professional ijtimoiy ish tizimini rivojlantirish, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolish xavfi mavjud oilalarni oldindan aniqlash, individual yondashuv asosida xizmat ko'rsatish, "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimini shakllantirish va tibbiy modeldan ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o'tish vazifalari belgilangan [8; B. 3–5].

Mazkur islohotning tarixiy ahamiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Birinchi, ijtimoiy himoya davlat siyosatining ikkilamchi yo'nalishi emas, mustaqil va markazlashgan boshqaruv sohasiga aylandi.

Ikkinchidan, yordam tayinlashda faqat shaxsning toifasi yoki tibbiy tashxisiga emas, uning individual ehtiyoji va hayotiy vaziyatiga asoslanish tamoyili joriy etila boshlandi.

Uchinchidan, ijtimoiy xodimning professional maqomi va individual holatni boshqarish mexanizmi shakllantirildi.

To'rtinchidan, ijtimoiy to'lovlar, xizmatlar, rehabilitatsiya va bandlik choralari yagona elektron tizim asosida muvofiqlashtirish imkoniyati yaratildi.

Beshinchidan, mahalla darajasida kompleks xizmat ko'rsatishga o'tish institutsional tus oldi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishga oid xalqaro qo'llanmada samarali tizim mustaqil hayot, jamoaga qo'shilish, mavjud to'siqlarni bartaraf etish va mahallaga asoslangan xizmatlarni rivojlantirishga qaratilishi lozimligi ta'kidlangan [6; B. 3–5]. "Inson" markazlari faoliyati ushbu yondashuvni milliy boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatini yaratmoqda.

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlashdagi eng murakkab masalalardan biri nogironlikni belgilash tartibi hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida nogironlik maqomi asosan tibbiy hujjatlar, kasallik tashxisi, organizm funksiyalarining buzilishi va mehnat qobiliyatining yo'qotilishiga qarab belgilandi.

Bunday yondashuv shaxsning kundalik hayot faoliyati, atrof-muhitdagi to'siqlar, yordamchi texnologiyalarga ehtiyoji, ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini to'liq hisobga olmas edi. 2019-yilgi tadqiqotda rasmiy ro'yxatdan o'tgan nogironligi bo'lgan shaxslar ulushi aholining ikki foizidan ham kam bo'lgani, buning sabablaridan biri tibbiy ta'rif va maqomni olishdagi ma'muriy to'siqlar ekani qayd etilgan [1; B. 31–33].

2024-yil 16-iyuldagi PQ-257-son qaror nogironlikni belgilash tizimini raqamlashtirish va funksional baholashga o'tkazishning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Keyingi o'zgartirishlarga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan nogironlikni faqat tibbiy hujjatlar asosida belgilash tartibidan voz kechish, sog'liq holati va funktsionallikni baholash natijalari asosida elektron tartibni joriy etish nazarda tutilgan. Nogironlik birinchi marta belgilangandan so'ng "Inson" markazlari tomonidan ta'lim, kasbga yo'naltirish, bandlik, sport va psixologik yordamni qamrab oluvchi individual reja ishlab chiqilishi belgilangan [14; B. 1–2].

Funksional modelning asosiy afzalligi shundaki, u tashxisning o'zini emas, shaxsning real hayot faoliyati va jamiyatdagi to'siqlarni baholaydi. Biroq ushbu tizimning samaradorligi baholovchi mutaxassislarining tayyorgarligi, standartlashtirilgan vositalar, idoralararo axborot almashinuvi, shikoyat qilish mexanizmi va baholash natijasida zarur xizmatlarning amalda taqdim etilishiga bog'liq bo'ladi.

Huquqqa asoslangan model nogironligi bo'lgan shaxsni maxsus muassasaga joylashtirishni asosiy yechim sifatida qabul qilmaydi. Uning markazida shaxsning o'z oilasi va mahallasida yashashi, uy-joy, shaxsiy yordamchi, kunduzgi xizmat, psixologik ko'mak, rehabilitatsiya, transport va boshqa xizmatlardan foydalanishi turadi.

Oldingi tizimda xizmatlar muassasa manfaatlari va mavjud imkoniyatlarga qarab shakllantirilgan bo'lsa, yangi yondashuv xizmatni shaxsning individual ehtiyojiga moslashtirishni talab qiladi. Buning uchun ehtiyojlarni kompleks baholash, individual xizmat rejasi, holatni boshqaruvchi ijtimoiy xodim va xizmat natijalarini monitoring qilish tizimi zarur.

BMT qo'shma dasturi doirasida Yagona reyestrda individual holatni boshqarish asosidagi ijtimoiy xizmatlar elektron modulini integratsiya qilish bo'yicha konsepsiya va tajriba loyihalari

ishlab chiqilgan [7; B. 21–22]. Mazkur tajriba keyinchalik “Inson” markazlari faoliyatini shakllantirish uchun metodik asoslardan biri bo’ldi.

Parvarish tizimiga oid tadqiqotda 2021-yilda Konvensiya ratifikatsiya qilingani va 2022-yilda Milliy ijtimoiy himoya strategiyasi qabul qilingani mahallaga asoslangan, inklyuziv va individual ehtiyojlarga mos xizmatlarni rivojlantirish uchun huquqiy imkoniyat yaratgani qayd etilgan [9; B. 51–52].

Inklyuziv ta’lim nogironligi bo’lgan bolalarning nafaqat bilim olish huquqi, balki ularning kelgusidagi mustaqilligi, kasbiy rivojlanishi va jamiyatga qo’shilishining asosiy shartidir. An’anaviy tizimda alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalarning katta qismi ixtisoslashtirilgan maktablar yoki internatlarga yo’naltirilgan.

Huquqqa asoslangan yondashuv bolaning mavjud umumta’lim muassasasiga moslashishini emas, ta’lim muassasasining bolaning ehtiyojlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha o’quvchilarning imkoniyatlari xilma-xilligini hisobga olgan holda bir sinfda teng sharoitda ta’lim olishini anglatadi [12; B. 10–11].

Avvalgi davr holatini o’rgangan UNICEF tadqiqotida qonunchilik va amaliyot bolalarni umumiy ta’lim tizimiga kiritishdan ko’ra maxsus muassasalarga yo’naltirishga moyil bo’lgani, maxsus maktablarning o’quv dasturlari esa keyingi kasbiy va oliy ta’lim imkoniyatlarini cheklagani qayd etilgan [13; B. 47–50].

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish faqat pandus qurish bilan cheklanmasligi kerak. Ta’lim dasturlarini moslashtirish, pedagoglarni tayyorlash, yordamchi o’qituvchi va mutaxassislar xizmatini joriy etish, imo-ishora tili, Brayl yozuvi, assistiv texnologiyalar, qulay transport hamda ota-onalarni qo’llab-quvvatlash tizimi kompleks ravishda yo’lga qo’yilishi zarur.

Bandlik nogironligi bo’lgan shaxsning ijtimoiy integratsiyasi va iqtisodiy mustaqilligining asosiy mezonlaridan biridir. O’zbekistonda ish o’rinlarini kvotalash, kasbga o’qitish, subsidiyalar va imtiyozlar shaklidagi mexanizmlar mavjud. Biroq mavjud tadqiqotlar ushbu choralarda ochiq mehnat bozorida barqaror bandlikni to’liq ta’minlay olmaganini ko’rsatadi.

Jahon banki hisobotida nogironlik maqomi ko’pincha mehnatga layoqatsizlik bilan tenglashtirilgani, ish beruvchilar uchun belgilangan kvotalarning ijrosi va nazorati yetarli darajada samarali emasligi ta’kidlangan [4; B. 9–10].

2019-yilgi qisqa vaziyat tahlilida mehnat yoshidagi 346 mingdan ortiq rasmiy ro’yxatdagi nogironligi bo’lgan shaxslarning taxminan 5 foizi band bo’lgani ko’rsatilgan. Ushbu raqam tarixiy vaziyatni aks ettiradi va keyingi islohotlar natijalari bilan to’g’ridan-to’g’ri tenglashtirilmasligi kerak. Biroq u bandlikdagi uzoq muddatli tizimli muammolarni ko’rsatib beradi [13; B. 50–52].

2025-yilgi tadqiqotga ko’ra, 2025-yil 1-yanvar holatida O’zbekistonda nogironligi bo’lgan shaxslar soni rasmiy ma’lumotlarda 1,02 million nafarni tashkil etgan. Ularning katta qismi mehnat yoshida bo’lishiga qaramay, bandlik darajasi pastligicha qolayotgani qayd etilgan [11; B. 6–7].

Bandlik siyosatining kelgusidagi ustuvor yo’nalishlari quyidagilardan iborat bo’lishi lozim:

1. nogironlikni avtomatik ravishda mehnatga layoqatsizlik deb talqin qilish amaliyotidan voz kechish;
2. ish joylarini oqilona moslashtirish xarajatlarini davlat va ish beruvchi o’rtasida taqsimlash;

3. kasbiy ta'limni mehnat bozoridagi real talab bilan bog'lash;
4. masofaviy va moslashuvchan bandlikni rivojlantirish;
5. davlat xaridlarida inklyuziv korxonalar uchun rag'batlantiruvchi mezonlarni joriy etish;
6. kvotalarning faqat son jihatidan emas, barqaror ish bilan ta'minlash natijasi bo'yicha monitoringini amalga oshirish.

Nogironlik ko'pincha qo'shimcha xarajatlar, mehnat imkoniyatlarining cheklanishi va parvarishlovchi oila a'zolarining bandligi kamayishi bilan bog'liq. Shu sababli bir xil miqdordagi daromad nogironligi bo'lgan a'zosi mavjud va mavjud bo'lmagan oilalar uchun bir xil turmush darajasini anglatmaydi.

UNICEF tadqiqotida nogironligi bo'lgan a'zosi mavjud oilalarda og'ir moddiy yetishmovchilik ikki baravar ko'p uchrashi, bunday oilalarning eng farovon guruhga kirish ehtimoli esa uch baravar pastligi aniqlangan [13; B. 40–43].

Assistiv vositalarga bo'lgan ehtiyoj ham to'liq qondirilmagan. Tadqiqot ishtirokchilarining 43,6 foizi assistiv vosita va mahsulotlarga ehtiyoj bildirgan, 21,5 foizi ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, atigi 2,8 foizi zarur vositalarni davlat tashkilotlaridan olgan [13; B. 36–39].

Mazkur ko'rsatkichlar oldingi davrga tegishli bo'lsa-da, ijtimoiy to'lovlarni belgilashda nogironlik bilan bog'liq real qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish, assistiv vositalarni individual ehtiyoj va sifat standartlari asosida taqdim etish zarurligini ko'rsatadi.

2024-yilgi tahlilda 2020-yilda O'zbekiston aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyaning turli shakllari bilan qamrab olingani, nogironlik bilan bog'liq to'lov oluvchi 484 ming nafar shaxsning 66 foizi sug'urtaviy nogironlik pensiyasi, 30 foizi bolalikdan nogironlik nafaqasi va 4 foizi ijtimoiy pensiya olgani keltirilgan [10; B. 12–13]. Bu ma'lumotlar pul to'lovlari bilan xizmatlar, rehabilitatsiya va bandlik dasturlarini o'zaro bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

“Biz haqimizda bizziz hech narsa” tamoyili nogironlik sohasidagi xalqaro siyosatning asosiy prinsiplaridan biridir. Davlat dasturlari, qurilish standartlari, ta'lim, bandlik, transport va axborot siyosatiga oid qarorlar nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning vakillik tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilishi kerak.

2019-yilgi tadqiqotda nogironligi bo'lgan respondentlarning atigi 6 foizi o'z huquqlariga oid qonunchilikdan xabardor ekani qayd etilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalaridan faqat 18 foizi o'z manfaatlari tegishli jamoat tashkilotlari tomonidan yetarlicha ifodalanmoqda, deb hisoblagan [1; B. 164–167].

Mazkur holat qarorlar qabul qilishdagi ishtirokni faqat rasmiy yig'ilish yoki maslahat bilan cheklab qo'ymaslik kerakligini ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlariga normativ hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, davlat dasturlarini monitoring qilish, xizmatlar sifatini baholash va budjet jarayonida ishtirok etish uchun real imkoniyatlar yaratilishi lozim.

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining rivojlanishi oddiy va chiziqli jarayon bo'lmagan. Unda eski va yangi modellar bir vaqtda mavjud bo'lib kelmoqda. Bir tomondan, qonunchilikda inson huquqlari, tenglik, kamsitilmaslik, qulaylik va ishtirok tamoyillari mustahkamlandi. Ikkinchi tomondan, ayrim amaliyotlarda tibbiy tashxis, muassasaviy parvarish va shaxs nomidan qaror qabul qilishga asoslangan yondashuv saqlanib qolmoqda.

Tarixiy tahlil uchta asosiy tendensiyani ko'rsatadi.

Birinchi tendensiya — kompensatsion siyosatdan inklyuziv siyosatga o'tishdir. Dastlabki tizim nogironlik oqibatlarini pensiya, nafaqa va imtiyozlar orqali qoplashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy siyosat to'siqlarni bartaraf etish va teng ishtirokni ta'minlashga yo'naltirilmoqda.

Ikkinchi tendensiya — idoraviy parokandalikdan integratsiyalashgan boshqaruvga o'tishdir. Milliy agentlik va "Inson" markazlarining tashkil etilishi xizmatlarni muvofiqlashtirish uchun tashkiliy asos yaratdi. Biroq yagona institutning mavjudligi avtomatik ravishda barcha xizmatlarning integratsiyalashganini anglatmaydi. Buning uchun vazirliklararo ma'lumot almashish, yagona standartlar, mahalliy budjetlar va natijaga asoslangan monitoring zarur.

Uchinchi tendensiya — tibbiy baholashdan funksional baholashga o'tishdir. Yangi tizim nogironlik maqomini belgilash bilan cheklanmay, aniqlangan ehtiyojlar asosida individual xizmatlar paketini shakllantirishi kerak. Aks holda funksional baholash faqat yangi ma'muriy tartibga aylanib qolishi mumkin.

Jahon banki tahlilida O'zbekistonda qonunchilikni Konvensiya talablariga muvofiqlashtirish, statistik ma'lumotlarni xalqaro ta'rif va vositalar asosida yig'ish, davlatlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish, universal dizayn, mahallaga asoslangan reabilitatsiya va inklyuziv bandlikni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatilgan [4; B. 1, 15–16].

#### **Xulosa.**

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi mustaqillik yillarida murakkab tarixiy evolyutsiyani bosib o'tdi. 1991–2007-yillarda milliy qonunchilik va davlat kafolatlari shakllantirildi. 2008–2016-yillarda reabilitatsiya hamda ijtimoiy xizmatlar tizimi kengaytirildi. 2017–2020-yillarda inson huquqlariga asoslangan siyosatga o'tish boshlandi va yangi maxsus qonun qabul qilindi. 2021–2022-yillarda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilinib, ijtimoiy himoyani strategik isloh qilish asoslari yaratildi. 2023-yildan esa Milliy ijtimoiy himoya agentligi, "Inson" markazlari, yagona axborot tizimi va funksional baholash mexanizmlarini joriy etishga asoslangan integratsiyalashgan bosqich boshlandi.

Tadqiqot natijalari milliy tizimning tibbiy-xayriya modelidan ijtimoiy va huquqqa asoslangan modelga tomon izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Biroq huquqiy normalar bilan kundalik amaliyot o'rtasida tafovutlar mavjud. Infratuzilmaning qulay emasligi, bandlik darajasining pastligi, mahallaga asoslangan xizmatlarning cheklanganligi, statistik ma'lumotlar sifati va jamoat tashkilotlari ishtirokining yetarli emasligi tizim oldidagi asosiy vazifalar bo'lib qolmoqda.

Kelgusida islohotlarning muvaffaqiyati yangi tashkilotlar soni yoki qabul qilingan hujjatlar bilan emas, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayoti, ta'lim va bandlik imkoniyatlari, daromadi, jamoat hayotidagi ishtiroki hamda o'z huquqlarini mustaqil amalga oshira olish darajasi bilan baholanishi kerak.

#### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. UNDP, UNFPA, WHO, UNICEF, UNESCO. «Situation Analysis on Children and Adults with Disabilities in Uzbekistan». Tashkent, 2019. 189 p. [https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3411/file/SitAn\\_Uzb\\_disabilities%204%20June%202019.pdf](https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3411/file/SitAn_Uzb_disabilities%204%20June%202019.pdf).
2. Government of Uzbekistan, UNPRPD, UNICEF, OHCHR, UNFPA, UNDP. «Situation Analysis

- on the Rights of Persons with Disabilities in Uzbekistan». Tashkent, 2021. 81 p.  
<https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5076/file/Situational%20analysis.pdf>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5049511>.
  4. World Bank. «Country Profile: Uzbekistan — Disability Inclusion». Washington, D.C., 2021. 23 p.  
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099415012202114964/pdf/P156962000ba ce01d0acaf097d2cee632d3.pdf>.
  5. Papa J., Hamdamov H., Aliev U., Oleinik Y., Sukhova A., Honorati M. et al. «An Assessment of the Social Protection System in Uzbekistan: Based on the Core Diagnostic Instrument (CODI)». ILO, UNICEF, World Bank. Moscow, 2020. 131 p.  
[https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@europe/@ro-geneva/@sro-moscow/documents/publication/wcms\\_760153.pdf](https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@europe/@ro-geneva/@sro-moscow/documents/publication/wcms_760153.pdf).
  6. Shaghashvili M. «Delivery of Social Services for Persons with Disabilities: Guidelines». UNDP, 2022. 37 p. <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-02/SSD%20Guideline%20UNDP%20ENG.pdf>.
  7. Kacapor-Dzihic Z., Perolli-Shehu B., Amanov Sh. «Evaluation of the UN Joint Programme on Strengthening Social Protection in Uzbekistan». Evaluation Report. March 2022. 58 p.  
[https://mptf.undp.org/sites/default/files/documents/2023-05/uzbekistan\\_final\\_evaluation\\_report.pdf](https://mptf.undp.org/sites/default/files/documents/2023-05/uzbekistan_final_evaluation_report.pdf).
  8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6480342>.
  9. UNDP. «O'zbekiston Respublikasida parvarishlash tizimini takomillashtirish: iqtisodiy o'sish, kambag'allikka qarshi kurashish va turmush darajasini oshirish yo'li to'g'risida hisobot». I qism. 2024. 105 b. [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-02/UZ\\_Report%20on%20Improving%20the%20Care%20System%20in%20the%20Republic%20of%20Uzbekistan.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-02/UZ_Report%20on%20Improving%20the%20Care%20System%20in%20the%20Republic%20of%20Uzbekistan.pdf).
  10. Scoppetta A., Zólyomi E. «Analysis of the State System in Uzbekistan to Promote an Integrated Approach in Employment and Welfare Services Delivery for Persons with Disabilities». UNDP, European Centre for Social Welfare Policy and Research, 2024. 123 p.  
[https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-07/UNDP\\_UZB\\_Analytical%20report\\_ICM\\_0.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-07/UNDP_UZB_Analytical%20report_ICM_0.pdf).
  11. Institute for Development of Social Protection, UNDP. «Barriers Young People with Disabilities Face in the Labour Market». Tashkent, 2025. 36 p.  
[https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz\\_nbsh\\_mehnat\\_bozori\\_en.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_nbsh_mehnat_bozori_en.pdf).
  12. «Nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari». Huquqiy-ma'rifiy qo'llanma. Toshkent. 26 b.  
[https://bolahuquqlari.uz/static/uploads/Kitoblar/%D0%A4%D0%98%D0%9D\\_%D0%A3%D0%97%D0%91\\_%D0%BF%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%B0\\_%D0%B4%D0%B5%D1%82%D0%B5%D0%B9\\_%D1%81\\_%D0%B8%D0%BD%D0%B2%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D1%81%D1%82%D1%8C%D1%8E.pdf](https://bolahuquqlari.uz/static/uploads/Kitoblar/%D0%A4%D0%98%D0%9D_%D0%A3%D0%97%D0%91_%D0%BF%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%B0_%D0%B4%D0%B5%D1%82%D0%B5%D0%B9_%D1%81_%D0%B8%D0%BD%D0%B2%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B4%D0%BD%D0%BE%D1%81%D1%82%D1%8C%D1%8E.pdf).
  13. UNICEF, UNDP. «Situation Analysis on Children and Adults with Disabilities in Uzbekistan: Brief Report». Tashkent, 2019. 68 p.

<https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3571/file/Brief%20PwD%20SitAn.pdf>.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-iyuldagi PQ-257-son "Nogironlikni belgilash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

<https://lex.uz/docs/-7021644>.

15. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O'RBQ-695-son "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5447413>.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-son "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

<https://lex.uz/docs/-6130265>.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3436192>.

18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil. <https://lex.uz/docs/-6445145>.